

**IBORALAR – O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPENTENSIYASINI
OSHIRUVCHI VOSITA SIFATIDA (Navoiy ijodi misolida)**

Klara TURSUNOVA

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806477>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida qo'llangan iboralarning lingvopoetik imkoniyatlari, badiiyati va ularda o'zbekona tafakkur ifodasi aks etishi xususida so'z boradi. Shuningdek, iboralarning o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini oshiruvchi vosita sifatidagi o'rni ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, ibora, fraza, lingvopoetika, somatik, frazeologik birikma.*

Аннотация: *В статье рассматриваются лингвопоэтические возможности и художественность выражений, используемых в творчестве Алишера Навои, а также то, как они отражают выражение узбекской мысли. Также раскрывается роль фраз как инструмента повышения речевой компетенции учащихся.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, выражение, фраза, лингвопоэтика, соматика, фразеологическое сочетание.*

Abstract: *This article discusses the linguopoetic possibilities of the expressions used in the work of Alisher Navoi, their artistry and the reflection of Uzbek thought in them. The role of expressions as a means of increasing students' speech competence is also revealed.*

Keywords: *Alisher Navoi, expression, phrase, linguopoetics, somatic, phraseological combination.*

Iboralar so'zlashuv uslubida faol qo'llaniladigan birliklardan biridir. U bir tomondan o'zbek xalqining o'zligini anglatib tursa, boshqa tomondan tilimizning o'ziga xosliklarini namoyon etishda ham faoldir. Shuning uchun mazkur birliklar maktab darsliklarida, o'quv qo'llanmalarida atroflicha ma'lumot yoki izoh berish va ularni o'quvchiga tanishtirish maqsadga muvofiq bo'lgan vazifalardan biri sanaladi. Albatta, iboralar kecha yoki bugun paydo bo'lmaganligi tufayli ularning etimologiyasiga to'xtalish, bundan necha asrlar oldin qanday shaklda bo'lganligini aniqlash va hozirda mavjud bo'lgan ko'rinishi bilan taqqoslash iboralarning taraqqiyotida o'zining munosib hissasini qo'shishi shubhasizdir. G'azal mulkining sultoni bo'lgan Alisher Navoiy asarlarida mavjud bo'lgan iboralarni keltirish va ularni qiyosiy jahatdan tahlil etish nafaqat o'quvchilar uchun, balki, barcha tilshunolar uchun qiziqarli.

Ma'lumki, iboralar ham maqol va matallar kabi nafaqat inson nutqini chiroyli, ta'sirli va ixcham qiladi, balki ma'lum bir millatning madaniyati, yashash tarzi hamda milliyatligini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Har qanday asarda uchraydigan ibora – frazeologik birliklar, albatta, biror badiiy maqsadda qo'llanilgan bo'lib, V.N.Teliyaning ta'kidlashicha, frazeologizm

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tadqiqotida muhim rol o'ynaydigan obyektiv va subyektiv faktorlar mavjud bo'lib, ushbu jarayon kommunikativ vaziyatlarni, ifodalanishda nominativ vazifani bajarishi, kognitiv jarayonlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik, nutqning ijtimoiy sharoitini anglash, kommunikantlarning statusini belgilovchi jihatlar sanaladi [9. 55-56.] Tadqiqot materiallari tahlil jarayonida tasviriy, tasniflash, lingvopoetik, konseptual kabi metod va usullaridan foydalanildi. "Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o'rnini, qo'llanishini, tuzilishini, o'ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi" [1. 257.].

Alisher Navoiy she'riyatida qo'llangan frazeologik birikmalarni lingvopoetik aspektda o'rganish o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini oshirishga va ularning so'z boyligini yanada ko'paytirishga zamin eski o'zbek tilining frazeologik boyligini belgilashda, uni hozirgi o'zbek adabiy tili frazeologiyasi bilan taqqoslab tadqiq etishda boy manba bo'ladi. Chunki "Lingvopoetika nafaqat tilning ijtimoiy vazifa hamda maqsadlariga, shuningdek, uning ko'plab nazariy-metodologik masalalariga tamomila yangicha yondashish imkonini beradi. Lingvopoetika til-nutq dixotomiyasiga monand ish ko'rib, tilning umumiy muammolarini qamrab olish bilan birga va shu tarzda, filologiya birligini ta'minlashga keng imkoniyatlar yaratadi" [7.22.].

Alisher Navoiy ijodida frazeologik birikmalar turli maqsadlarda – lirik qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda, psixologik, ijtimoiy-maishiy, madaniy voqelikni emotsional-ekspressiv ochib berishda juda o'rinli qo'llanilgan. Natijada shoir she'riyatining badiiy qimmatini va ta'sir kuchi oshgan, obrazli ifodada frazema lingvistik ahamiyat kasb etib, Navoiyga xos individual poetik-lisoniy mahoratni belgilashga asos bo'lgan.

Frazeologik birliklar fikrning aniq va ravshan ifodasini ta'minlashda boshqa til birliklariga nisbatan o'ziga xos jihatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy ijodining lingvopoetik tahlilida ham frazeologik birliklar alohida o'rin tutadi. Jumladan, shoir qalamiga mansub quyidagi g'azalda qo'llangan frazema ham matnda tasvirga olingan voqea darajasini oshirish hamda muallif hissiyotini gavdalantirishda asosiy detal bo'la olgan:

Jobir oning xayolidin xushhol,

Ko'ngliga kelmayin umidi visol.

[Jobir uning xayoli bilan xushhol (yurar),

Ko'ngliga visol umidini keltirmas ham edi [11.185.] baytdagi "ko'ngliga kelmayin umidi visol" misrasi tarkibida "ko'ngliga kelmayin" iborasi qo'llangan.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da “ko‘ngliga kelmoq” iborasi: 1) o‘zicha o‘ylamoq; 2) biror munosabat bilan aytilgan gapni yoki qilingan harakatni og‘rinib qabul qilmoq 3) xohlamoq izohi berilgan [4. 291.]. Bu parchada esa ibora birinchi ma’noda ishlatilgan.

O‘zga nekim bor erdi yaxshi-yomon,

Beribon jonidin borig‘a amon.

[Boshqa (asirlardan) yaxshimi-yomonmi kim bo‘lsa ham

Barchalarining jonlariga omonlik berdi. [11.185.]

Ma’lumki, Navoiy davrida jang-u jadallar ko‘p bo‘lib, hech kim ertangi kunda tirik bo‘lishiga ishonchi komil bo‘lmagan. Qisqa qilib aytganda ko‘pchilik odamlarning hayoti hukmdorga yoki bosqinchilar hujumiga bog‘liq edi. Shu vaziyatlarda joniga omonlik bermoq iborasi faol iste’molda bo‘lgan. Ammo hozirga kelib bu ibora eskirgan frazemalardan biri hisoblanib, O‘TFLdan ham o‘rin egallamagan.

Yiqilib zoyil o‘ldi andin hush,

Bir dam erdi o‘luk kibi xomush.

Zoyil o‘lmoq – yo‘qolmoq deganidir. Asarda berilgan ibora – hush zoyil o‘ldi. Bu birlik hozirda faol bo‘lgan hushini yo‘qotmoq iborasiga teng keladi. O‘TFLda hush(i)ni yo‘qotmoq shakldosh ibora sifatida qayd etilgan: 1) behush bo‘lmoq; 2) esankiramoq. [4.192-193.]. Yuqoridagi baytda esankiramoq ma’nosini bermoqda.

[Shunda) undan (aql-u) hush yo‘qolib,

Bir dam o‘lik kabi jim bo‘lib qoldi [11. 184.]

“Hush” komponentli frazeologik birliklar soni Navoiy ijodida anchani tashkil etadi. Quyida esa hushiga kirgach iborasi mavjud va u ayni paytda ishlatiladigan variantiga juda yaqin. Hushiga kelgach bu iboraning XXI asrdaga ko‘rinishidir. Ular o‘rtasida farq katta bo‘lmaganligi sababli, ya’ni komponent tarkibi ham o‘xshashligi uchun o‘quvchilar bemalol tushuna oladilar.

Hushi kirgach, yana nazar etti,

Ko‘rgach o‘q holidin yana keti.

[Hushiga kelgach, yana nazar qildi,

Ko‘rdi-yu, yana holdan ketdi. [11. 184.]

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ijodi chinakam turkiy tillar uchun bitmas-tuganmas xazinadir. Oddiy so‘zlar, balki, turg‘un birikmalar tarkibini tahlil etish jarayonida ham bunga amin bo‘lmoqdamiz. Ba’zi iboralarni tahlil etish jarayonida shunga amin bo‘ldikki, oradan 600 yil muddat o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan hali ham o‘zgarmasdan qolgan iboralar mavjud, komponenti o‘zlashgan so‘zlar uchrasa-da, ularning hozirgi muqobillarini topish qiyinchilik tug‘dirmaydi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература/ References):

1. Rasulov Ravshanxo'ja. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 2010. 257-bet.
2. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. 469-bet.
3. Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII – XIX веков. М., 1982. с. 83–84.
4. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019. 196-бет.
5. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М., «Высшая школа», Дубна, “Феникс”, 1996. с. 381.
6. Маҳмудов Н. Иборалар ва уларнинг луғавий тавсифига чизгилар. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Т., 2022, 3-сон, 3-бет.
7. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни. Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). Тошкент, “Университет”, 2002, 22-бет.
8. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Тошкент, “Фан”, 1971, 15-бет.
9. Телия В.Н. Русская фразеология. М., 1996, с. 55 – 56.
10. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, 2002, 125-бет.
11. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshibekov J. Adabiyot 7-sinf. Toshkent, 2017, 369-bet.